



## DENGIZBO‘YI SINERARIYASI QARSHI VOHASI UCHUN ISTIQBOLLI TUR

Dilmurodova E.

Qarshi davlat niversiteti magistranti

Qarshi shahri shu nomdagi katta cho‘lning markazida joylashganligi tufayli keskin kontinental iqlim sharoitiga ega. O‘rtacha yillik harorat  $+17^{\circ}\text{C}$  (Respublikada eng yuqori). Ko‘p yillik meteorologik ma‘lumotlarga ko‘ra yozda havo harorati  $+49^{\circ}\text{C}$  gacha ko‘tarilgani holda, qishda u  $-30^{\circ}\text{C}$  gacha tushib ketishi qayd qilingan, ya‘ni musbat va manfiy haroratning tebranishi juda katta. Yillik yog‘ingarchilik miqdori 130-250 mm ni tashkil qiladi. Yozda hudud bir necha marotaba qum va chang bo‘ronlari ostida qoladi. Tropik va subtropik iqlimdan keltirilgan o‘simliklar qishdagi qattiq sovuqdan, boreal iqlimga mansub o‘simliklar esa yozning jazirama issig‘i va havo namligining pastligidan qiynaladi. Shunday qilib, Qarshi vohasining iqlim sharoiti chetdan o‘simliklarni keltirib ekish uchun qator qiyinchiliklar tug‘diradi. Shu sababli vohani ko‘kalamzorlashtirishda istiqbolli assortimentni tanlash dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

Kserofitlar uzoq davom etadigan qurg‘oqchilik va havoning yuqori haroratiga anchagina bardoshli bo‘lgan o‘simliklar hisoblanadi. Bunday o‘simliklar cho‘l va chala cho‘l tipik florasini tashkil etadi. Shuningdek, ular qoyalarda, sho‘r yerlarda, dengiz qirg‘oqlarida va shamol uchirib yuradigan qumtepalarda o‘sadi (2). Qarshi vohasini ko‘kalamzorlashtirish uchun tavsiya qilinadigan assortiment tarkibida kserofit turlarning ko‘p bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Chunki manzarali kserofit turlar tabiiy holda Qarshi vohasi singari qurg‘oqchil zonalarda o‘sadi.

Manzarali kserofit turlardan biri bo‘lgan Dengizbo‘yi sinerariyasi (*Jacobaea maritima*) – Murakkabguldoshlar (*Asteraceae*) oilasiga mansub buta yoki chalabuta hayotiy shakliga ega o‘simlik. Qarshi vohasi sharoitida undan bir yilliklar sifatida foydalaniladi. Yaqin vaqtgacha bu tur *Senecio* turkumiga kiritilgan edi. So‘ngi paytlarda olimlar bu turni *Jacobaea* turkumiga mansubligini qayd etdilar (6). Bu turning sistematikasiga doir munozaralar xanuzgacha davom etmoqda. Manzarali bog‘dorchilikda unga nisbatan turli sinonimlar: *Senecio cineraria*, *Senecio bicolor* va *Cineraria maritima* nomlari ishlatiladi (5).



Yovvoyi holda o‘simlik O‘rtayerdengizi mamlakatlari: Aljir, Balear oroli, Korsika, Fransiya, Italiya, Marokash, Portugaliya, Sardiniya, Sitsiliya, Ispaniya, Tunis, Yugoslaviya va Gretsiyadagi dengiz bo‘yi qoyalarida o‘sadi. Ko‘pgina mamlakatlarda manzarali gul sifatida keng qo‘llaniladi. (3, 4). Ayniqsa undan Yevropa mamlakatlari keng foydalanadi

Barglari oddiy, chuqur qirqilgan, yuzasi kumushsimon-kulrang tusda. Savatchalari margaritka gulini eslatadi. Savatchani o‘rama barglari ham kumushrang-kulrang tusda. Tilsimon, naysimon gullari va urug‘chilari sariq rangda. Gullarining diametri 15 mm. Mevasi silindrsimon pistacha. Urug‘laridan chiqqan maysalar dastlab yashil rangda bo‘ladi, keyinchalik och tusga kiradi. O‘simlik o‘sgani sari barglariing rangi oqarib boradi.

Poya va barglari senetsifillin alkaloidini saqlaydi. Bu modda muskul relaksantlari guruhiga kiritilib kurare zahariga tenglashtirilgan (1). Ko‘kalamzorlashtirishda turli ranglarda gullovchi manzarali gullarga fon berish maqsadida ekiladi.

Seleksionerlar tomonidan ‘*Silver Dust*’ deb nomlangan navi yaratilgan bo‘lib, uning barglari juda ham yorqin tusda. Bu navning o‘ziga xosligi shundaki, uning bo‘yi 25 sm gacha bo‘ladi. Barglarining o‘ymasi juda chuqur, barglari kumushsimon-oq tusda.

Urug‘lari juda mayda bo‘lib, 2000 ta urug‘ining og‘irligi 1 g ni tashkil qiladi. Bir yoshli urug‘larining unuvchanligi 68 % ekanligi, 2 yoshli urug‘larniki 23 % bo‘lishi aniqlandi. Qarshi vohasi sharoitida urug‘lari fevral oyida issiqxonada ekiladi. Urug‘lari 7-10 kunda unib chiqadi. Besh-oltita bargdan iborat ko‘chatlari mart oyining oxirgi o‘n kunligida doimiy joyga 15-20 sm oraliq qoldirib ekiladi.

Qarshi vohasi sharoitida 2022 yil sentabr oyining dastlabki kunlaridan g‘unchalar shakllana boshlaganligi kuzatildi. Sentabr oyining ikkinchi yarmidan gullash fazasi boshlandi va gullash 36 kun davom etdi. Noyabr oyining oxirida havo haroratining pasayganda o‘simlik o‘sishdan to‘xtadi. Bir tup o‘simlik 60 sm gacha o‘sib, 60 sm gacha joyni egalladi.

O‘simlikning gullashi uning manzaralilik xususiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatganligi sababli uning gullaridan emas barglaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Shu sababli avgust oyida uning gulpoyalarini chilpish tavsiya qilinadi. Shunda o‘simlik gullamaydi va yuqori manzara kasb etadi.



## Adabiyotlar

1. Головкин Б. Н. и др. Сенецифиллин (seneciphylline, 13,19-didehydro-12-hydroxysenecionan-11,16-dion) // Биологически активные вещества растительного происхождения / Отв. ред. В. Ф. Семихов. –М.: Наука, 2001. – Т. II. –С. 542-543. – 764 с.
2. Гусев Н.А. Некоторые закономерности водного режима растений. – М., 1959. – 216 с.
3. POWO (2023). "Plants of the World Online. Facilitated by the Royal Botanic Gardens, Kew. [Электронный ресурс]:Published on the Internet; <https://powo.science.kew.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:77180722-1/> (accessed 7st Septembe).
4. Senecio // Ботаника. Энциклопедия «Все растения мира»: Пер. с англ. = Botanica / ред. Д. Григорьев и др. – М. : Könemann, 2006. – С. 836-837.
5. The Plant List [Электронный ресурс]: Published on the Internet. – 2015. - URL: <http://www.theplantlist.org/> (accessed 7st Septembe).
6. The Angiosperm Phylogeny Group. An update of the Angiosperm Phylogeny Group classification for the orders and families of flowering plants: APG IV : [АНГЛ.] // Botanical Journal of the Linnean Society. – 2016. – Vol. 181, no. 1 (24 March). – P. 1-20.